

Teshaboyeva Hurriyat

KO‘Z OCHGAN BULOQLAR

Москва, Россия - 2024



**Teshaboyeva Hurriyat
Ko‘z ochgan buloqlar. Сборник стихов / а
льманах - г. Москва
Всероссийский информационно-образователь
ный портал «Магистр» 2024 - 26 с.**

ISBN: 9781446162972

© Тешабоева Хуррият ., текст, 2024
© Методическое пособие 2024
© Всероссийский информационно-
образовательный портал «Магистр», 2024



Hurriyat Teshaboyeva Qo`shaqboyevna 32-umumiyo o`rta ta`lim maktabi ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi bir nechta she`r va maqolalari gazeta, jurnallarda bosilib chiqqan,MDH yetakchilari ko`krak nishoni sohibasi,"Uyg`onish" nomli kitob muallifi.

Yangi yil

Xayr endi eski yil,

Tarixlarga yozilding.

Salom senga yangi yil,

Reja bo`lib tuzilding.

Dasturxon to`kin-sochin,

Ikki yil ham to`qnashdi.

Eski yil o`z o`rnini,

Yangi yilga bo`shtadi.

Qaxraton qish keldiyov,

Qor ,yomg`ir ham yog`moqda.

Yangi yil qorlar bilan



Eski yilni kuzatdi.

Ona

Sovib qolsa sovuqda xonam,

Mehri bilan isitgan onam.

Ochib qolsa agarda qornim,

O`zi yemay yedirgan onam,

Mehribonim, dilkashim onam,

Kasal bo`lib qolsamda agar,

Tunlar parvonadek boshimda,

Uxlamasdan duolar qilar,

Tong otguncha meni qarshimda,

Duogo`yim dilkashim onam.

Deydilarki, dono xalqimiz,

Onalarning poyida Jannat,

Siymosi bir ajoyib san`at,

Behribonim, jannatim onam.

Ustoz

Ustoz otangdan ulug`,

Deydilar dono xalqim,

Nega shunday deyishar,

Yetmoqda endi aqlim.

Ilk bor tutqazib qalam,

O`rgatar savod, xatni,

O`rgatar erinmasdan,

O`rgatar ma`rifatni.

Qush uyasida ko'rganini qiladi

Yoz kunlari edi. Dugonamning uyiga mehmonga bordim. Mehmondorchilikdan so'ng bir oz salqinlamoqchi bo'lib tashqariga chiqdim. Sal narida dugonamning kelinoyisi telefonga termulib o'tirgan ekan. U o'z `` mashg`uloti ``ga shu qadar qattiq berilib ketgan ediki, hatto, mening yaqinlashib qolganimni ham payqamadi.

Shu payt uning 5-6 yoshlar chamasida o`g`li yugurib onasining yoniga keldi-da tez telefonni berishini so`rab xarxasha qila boshladi. Ayol esa hamon telefondan ko'z uzmay, bolasini qo`li bilan nari qildi. Bola onaning bu muomalasidan tinmay yig`lar atrofidagi qo`liga kirgan narsa borki, uloqtiririb tashlardi. Shundagina ona o`g`lining bu harakatlariga toqat qilomadi chog`I unga telefonni tutqazdi. Bola tinch landi. Shu paytdan to kechgacha bir joyda jimgina telefon o`ynab o`tiraverdi. Bu voqeani kuzatarkanman, xayratim tobora oshib borardi.

Dugonamnikidan uyga qaytim. Uy yumushlarini bajarib bo`lgach, Qo`limga cho`lponning ``Kecha va kunduz'' romanini oldim. Shu lahzada 2 yoshli qizim kitobni talashib qo`limdan torta boshladi. Darhol haligi voqeа yodimga tushib, men ham bolamga telefon tutqazdim. Lekin u telefonni uloqtirib, yana kitobga talpindi. Noiloj unga kitobni tutqazdim. U esa ``o'z tili''da uni o`qiy boshladi. Bu holat menga juda ta`sir qildi. O`yga toldim. ``Qush uyasida ko'rganini qiladi'' deb shunga aytsalar kerak-da...

Shu fikr hayolimda aylanaverdi. Keyinchalik farzandlarim uyga kelganlarida, har safar qo`limga telefon emas, kitob olib o`qishni odat qildim.

Ha, texnologiya juda taraqqiy etgan zamonda yashayapmiz. Internet deganlari shu darajada rivojlandiki, jamiyatimiz hayotiga osongina, katta shiddat bilan kirib keldi. U shu tariqa insonlarning bor vaqtini, butun hayotini egallab olishga ulgurdi. Bu ham kerak, usiz taraqqiyot bo`lmasligi aniq.

Lekin ayrim odamlar kun bo`yi ``telefon jinnisi''ga aylanib

qolayotgani yomon. Ular qimmatli vaqtlarini internet xabarları, ``youtube'', ``Facebook'', ``telegram''ga sarflab, foydasiz o'tkazayotganlari g'oyatda achinarli.

Yoshlarni qo'ying, hatto, juda ko'p ota-onalar ham shu tarzda yashamoqdalar.

Endi o'ylab ko'raylik, ularning farzandlari qanday tarbiya oladi.

Axir, bolalar g'oyat taqlidchi bo'lishadi, kattalar nima qilsa, ularga ergashadilar-ku.

Yoshlar yoki xotin-qizlar orasidagi jinoyatlar sodir bo'lishi ma'naviy tarbiyamizga bog'liq. Ayniqsa, yosh bolalarning telefon o'ynashlari ularning aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatish haqida mutaxasislar tinimsiz bong urmoqdalar.

Har qanday johillik bilimsizlik tufaylidir. Demak tarbiyaning poydevori mustahkam bo'lmog'I kerak. Oilada telefonga emas, kitobga do'st bo'lish bolalarning dunyoqarashini to'liq shakllantiradi va hayotida muhim o'rinn tutadi.

Ota-onalarimizdan so'raymizki, farzandlariga har sohada o'zлari ibrat bo'lsinlar. Mehnatda, odob-axloq va kiyinishda ham. Har bir bola bosh tarbiyani oilada, ta'limni esa mакtabda oladi.

Oil ava maktab hamkorligi puxta bo'lgandagina kelajak bunyodkorlari, har sohada komil insonlar shakllanadilar. Biz yoshlarimizning beg'ubor qalblariga ezgulik urug'larini sochib, ularning yuksak orzulari ro'yobga chiqishiga ko'maklashaylik. Chunki farzandlarimiz-bizning kelajagimiz.



Tursunova Odinaxon Ulug`bek qizi 32-umumiyy o`rta ta`lim maktabi 10-“A”sinf o`quvchisi.

Bahor.

Bahorda gullaydi anvoyi gular,

Bahor gullar bilan har doim .

Agar gullar bo`lmasa bu olamda,

Bahor gullarisiz qandayin kular.

Axir bilasizku bahor farzandi,

Gullardir har yoqqa hid taraladi.

Ularning onasi bahordir faqat,

Ular o`tlar kabi emas asrandi.

Bahorda ochilar boychechak,lola,

Uni terib,hidlar har jajji bola.

Boychechak hidi shirin go`zal guldir,

Undan hech qolishmas gulg`uncha lola.

Nafs qursin.

Odamlarni yomon yo`lga boshlagan,
Yo`llariga ko`plab tuzoq tashlagan.
Oxiratni o`ylashga ham qo`ymagan.
Nafs qursin-a,nafs qursin-a, nafs qursin.

Nafsiga qul bo`lmoq ,o`lmoqlik demak,
Nafsiga qul bo`lman sabrli demak.
Insonga sabr qilish doimo kerak,
Nafs qursin-a,nafs qursin-a,nafs qursin.

Nafsning asorati juda yomondir,
Uning tuzog`idan chiqqan omondir,
Qizil yonib turgan o`qli kamondir,
Nafs qursin-a,nafs qursin-a,nafs qursin.

SABR.

Sabr qilish insonga xos fazilat,
Unda hukm surar rostlikadolat.

Yolg'on,nizolar unga mos emas,

Uni demanglar also razolat.

Sabr fazilati juda foydali,

Lekin,sabr qilish-emas qoidali.

Biroq,sabr qilsa yetar murodga,

Bunda ko`rinmaydi hech bir yomonlik.

*Tursunboyga aytar so`zim... (Said
Ahmadning``UFQ``romanidagi qochoq Tursunboyga
bag`ishlanadi)*

Ey noshud osiy banda,

Ne ishlar qilib qo`yding.

Bo`lding o`zing sharmanda,

Qilsang o`zingga qilding.

Nega urushdan qochding,

Ota-onang o`ylamay.

Iymon kiyimin yechding

To`g`ri ishni ko`zlamay.



Tursunboy degan nomga
Qanday munosib eding
Endi esa o'zinga
Qochoq degan nom qo`yding.

Sening bu qilmishlaring
Uvoli bo`ldi onang
Yakka farzandi eding
Ado qilding-ku otang.

Shu urushdan qochmasang
Yasharding jannatlarda
Shayton quli bo`lmasang
Kezarding jannatlarda.

Ichingdagi shu ovoz
Kishan taqdi dilinga
Sabr qilmading biroz
Kishan ko`chdi tilinga.

Seni otang bechora

Qanday katta qilgandi

Och qolsang sen nachora

Og`zidagin bergandi.

Xullas taqdir shu ekan

Nima ish ham qilamiz

Jon berish kerak ekan

Jim sabrlar qilamiz.

Erkin Vohidovga bag`ishlov

O`zbegim deb chin dildan bitgan

Adabiyot uchun jonini tikkan

Buyuk kelajakni intizor kutgan

Erkin Vohidovdek ustoz bor edi.

Dard chekkanga shodligin bergen

Har bir so`zin marjondek tergan

Har lahzada she`rlarni sevgan

Erkin Vohidovdek ustoz bor edi.



Har insonni ko`nglini olgan
Qalblariga mehr o`tini solgan
Millat dardi bilan quyoshdek yongan
Erkin Vohidovdek ustoz bor edi.

Doimo yashaydi aytgan so`zлari
Ko`zing kuydiradi nurli yuzlari
Adabiyotga qoldi o`chmas izlari
Erkin Vohidovdek ustoz bor edi.



32-maktabning 6-``B`` sinf o`quvchisi **Maxamadqosimov Dilyorbek** Uyg`onish nomli ijodiy kitobda she`rlari chiqqan.

Bahor

Qish ketib bahor keldi

Turli gullar ochildi.

Gullarning xushbo`y hidi

Har tarafga sochildi.

Kela qolgin qaldirg`och

Eshigingni tezroq och.

Uyimizga in qurib

Baxt nurini tezroq soch.



Ibn Sinoning iltimosi

Bir kuni podshoh tuzalmaydigan kasalga chalinibdi . Ibn Sino podshohni tuzatibdi va podshoh Ibn Sinoga tila tilagingni debdi. Ibn Sino esa menga mol-u davlat kerak emas. Menga o`zingizni katta kutubxonangizda kitob o`qishga ruxsat bersangiz bo`ldi debdi. Podshoh Ibn Sinoga qarab men senga zebu-ziynat, oltinlar beryapman debdi. Sen kitobni nima qilasan. Kitob zerikarli-ku kitobni qanday foydasi bor. Ibn Sino kitobdan ko`p narsa o`rgansa bo`ladi. Masalan: bilim, ilm olsa bo`ladi deb podshohga aytibdi.Podshoh Ibn sinoga katta kutubxonasidan kitob o`qishga ruxsat beribdi.



O`rinboyeva Ziyodaxon Ilyosbek qizi 32-umumiyl o`rta ta`lim maktabi 6-“B” sinf o`quvchisi

Navoiy bobom

G`azallar sultoni Navoiy bobom,
She`rlari qalbimda doston va doston.
Jahonga buyukdir “Hamsa” asari,
Insonlar qalbidan joy olgan bari.

Navoiy bobomning g`azal, dostoni,
Juda ko`p asarlarni yo`q uni soni.
Aqlimizni charxlab, o`qishga eltar,
O`qigan insonlar murodga yetar.

Mahallamiz.

Kelaman yana o`sha,
Mahallamning boshiga.



Barchaga salom deyman,
Katta-kichik,yoshiga.

Qo'shnimiz Zeboxola,
Gullariga suv quyar.
Bolalari bir to`da,
Ularni birdek suyar.

Mashinalar o'tishar,
Kattakon ko'chamizdan.
Tol tagida so'rida,
Chollar shashka o'ynashar.

Yonida hovuz katta,
Ichi to`la baliqlar.
Ko`rganlar bahra olar,
Siz ham keling albatta.

Bu bizning mahallamiz,
Mo'jizali ko'chamiz.

Kelinglar uyimizga,

Mehmon bo`lib ketasiz.

Qishki konset.(hikoya)

Qish .Atrof juda ham sovuq.Hammayoqda izg`irin shamol esib yurar,ariqlar va suvlar usti yaxmalak edi.Osmonda hech qanday qushlar ,atrofda esa hech qanday jonzod ko`rinmas edi.Biz Dilshod,Dilyor va Ozodlar bilan birgalikda konsert o`tkazish uchun tayyorgarlik ko`rayotgan edik. Biz tayyor bo`lishimizdan bir kun oldin ustozimiz yana boshqalardan ham qo`shilishini so`radi.Biz ho`p deya:Shahnoza,Durdona,Charos va Muhlisalarni o`z jamoamizga qo`shdik.Keyin esa yana tayyorgarlikda davom etdik. Bu tayyorgarlik bilan vaqt uzoqqa cho`zilib ketdi.Konsertdan besh kun oldin hammamiz o`z kiyimlarimizni tayyorladik.Konsertdan bir kun oldin so`nggi tayyorgarlikni o`tkazdik va bunga ustozimiz yaxshi fikr bildirdi.Hammamiz o`z uy-uylarimizga tarqaldik.Vanihoyat konsert bo`ladigan kun ham keldi.Ammo bir muammo bore di.Kechasi bilan bir metr qor yog`ib,hammayoqni qoplagan edi.Biz konsertni mакtab hovlisida otkazmoqchi edik,ammo bunday ob-havoda konsert o`tkazib bo`lmасди.Ob- havo kayfiyatimizga ta`sir eta olmади,qoldira olmas edik ham,chunki ,ota-onalarni ham taklif qilgan edik.Butun maktab o`quvchilari bilan maktabni qordan tozaladik va mehmonlarni kutib olib ,konsertimizni boshladik.Juda chiroyli tashkillandi va bo`lib o`tdi.Konsert mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.Tashqarida qor ham tindi,quyosh bulutlar orasidan mo`ralab ,zarrin nurlarini socha boshladи.,go`yo quyosh ham barcha kabi tashakkur aytgandek.



G`ulomov G`ofurjon Rahmatillo o`g`li 32-umumiyo o`rta ta`lim maktabi 3-“D” sinf o`quvchisi.

Ustoz.

Ustoz ham biro nada,
Hurmat qil-bu qoida,
Doim amal qil bunga,
Ko`rasan katta foyda.

Xato qilsang tuzatar,
To`g`rilab tez uzatar.
Misollar ko`p,chuqurroq,
O`qigin ko`p-ko`p tezroq.



Baliq.

Eh,baliq,baliq,baliq,
Buncha suzasan aniq.
Qarab tursam qochasan,
Ko`rinasan suv tiniq.

Baliqlarning turi ko`p,
Laqqa,cho`rtan,oq baliq.
Keling,ko`ring marhamat,
Balig`ingizga rahmat.

Ona.

Ona sizga ming rahmat,
Katta qildingiz asrab.
Aytganingiz qilmadim,
Meni kechiring faqat.

Oq sut berdingiz bizga,
Yuvib tarantirdingiz.
Ba`zida yemay-ichmay,
Berdingiz,rahmat sizga.



Aytmay ko`chaga chiqsam,

Siqildingizda barvaqt.

Hammasi uchun rahmat,

Ona sizni yaxshi ko`raman.



Solijanova Madinaxon Xabibulla qizi 32-maktab 6-“B” sinf o`quvchisi.

Yangi yil

Bo`yi shiftga yetgan,
Ignal bargli ko`k archa.
Zar-u bezaklar taqib,
Yasanishi o`zgacha.

Yangi yil bayramida,
Qorboboni kutamiz.
Kelsa qopin ko`tarib,
Quvonchlarga to`lamiz.

Quyoncha

Quyoncha hoy quyoncha,
Ey sen shal pang qul oqcha
Sakrab sakrab tolmaysan,

Charchash nima bilmaysan.

Vatanim

O'zbekiston vatanim,

Sen mening jon-u tanim.

Yuksaklikka intilgan,

Viqorimsan vatanim.

Do'stlik kuni

Bahor fasli. Ertalab Mavluda turdi, va ko'zlarini ochdi, atrofga qarasa. Bahor fasli kirib kelgan. Bog`da mayin shamol esmoqda. Atrof esa gullarga to`lgan. Mart oyi Mavluda biroz o`yga toldi. Bugun qanday kun ekan-a deb o`ziga savol berdi. Shu payt uning telefoniga xabar keldi. Mavluda xabarga qaradi. Uni do'stlari do'stlik kuni bilan tabriklayotgan edi. U shosha pisha yuz qo'llarini yuvib kiyimlarini kiyib zargarlik do'koniga bordi. Va u uch kishilik do'stlik tumorini sotib oldi. Keyin ularni olib u o'z kafesiga bordi. Do'stlik tumorlarini birini Hadichaga berdi. Oyishaga endi beraman degandi mijoz kelib qoldi. Oyisha do'stlik pechenyelarini taylorlayotgan edi. Uni hayolida faqat bir o'y Mavluda men bilan yaxshi dugona edi-ku lekin u do'stlik tumorlarini Hadichaga berdi. Oyisha Mavludadan juda xafa. Kafedagi ko'p mijozlar do'stlari bilan kelgan edi. Ularni ko'rghan Oyisha Mavludadan juda juda xafa bo`lib ketdi. Mavluda yana edi beraman degandi Oyisha Mavludani gapini eshitmasdan ketib qoldi. Vaqt o'tdi va shom tushdi. Oyisha kafedagi idishlarni yuvayotgan edi. Birdaniga Mavluda Va Hadicha hayoliga bir narsa keldi. Ular Oyishaga surpriz qiladigan bo`ldi. U idishlarni yuvib quritib O'chdi. Va belgili shamlar yondi. U yerda Mavluda va Hadicha bore di. Shunda Mavluda Oyishani do'stlik kuni bilan tabriklab do'stlik tumorini berdi. Oyisha juda xursand bo`ldi. Va ular tuni bilan suhbatlashib do'stlik kunini o`tkazishdi.



Arslonbekova Zarinabonu 32-umumiyl o`rta ta`lim maktabi 9-“A”sinf o`quvchisi.

Qumri enam bo`lardi, Enamga.(Qumri enamga)

O`zi chiroylikkina ,
So`zлari chuchukkina.

Borsak bag`ri to`lardi.

Shoshib o`rnidan turib,
To`saklarni solardi.
Otkazgani joy topolmay,
Ichidan quvonardi.

Enajonim farishta,
Ishlari ham sarishta.



Rosa gullar ekardi,
Bizga o`rnak har ishda.

Oyim nonlar yopganda,
Eng yaxshisin olardim.
Enamga oboray deb,
Doimo ilinardim.

Zarbonu qizim keldi,
Chiroyli ko`zim keldi.
Deya erkalatardi,
O`pib-o`pib qo`yardi.

Bu kunlar o`tdi-ketdi,
Shosha-pisha yugurib.
Qanday boramiz endi,
Uyingizga qidirib.

Всероссийский информационно-образовательный
портал «Магистр»

10+
Сборник стихов

Teshaboyeva Hurriyat

КО‘З ОЧГАН БУЛОQLAR

Председатель оргкомитета: Ирина Фёдоровна К.

Email: metodmagistr@mail.ru

Тел. редакции: +7 923 606 2950

Главный редактор: Вознов Александр Сергеевич

Email редакции: magistr-centr@magistr-r.ru

Информационно – образовательный ресурс

"Магистр": Елена Владимировна В.

Email: magistr-centr@mail.ru

Сетевое издание «Магистр»
СМИ Серия ЭЛ № ФС 77 – 75609

от 19.04.2019 г.

(РОСКОМНАДЗОР, г. Москва)

ИНН 4205277233

ОГРН 1134205025349